



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

**Qo'qon DPI.
ILMIY
XABARLAR.**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
Кокандский ГПИ.**



13. R.Z. RAJABOVA	XVIII-XIX Asrlarda Buxoroda madaniy va ilmiy muhit	79
14. G.ALIJONOVA	Rizouddin ibn Faxriddin dunyoqarashi shakllanishida ta'lim tizimining tutgan o'рни.....	84
15. H.M.ҲАМАЕВ	Ўзбекистонда Совет ҳокимиятига қарши қуролли кураш яқунлари ва тарихий оқибатларига матбуотда берилган баҳо.....	89
16. D.ABDULLAYEV	XX asrda O'zbekistonda mukofotlash tizimi tarixi Farg'ona viloyati misolida (Farg'ona viloyati davlat arxivi hujjatlari asosida).....	95
17. G.SH.ZUNUNOVA	O'zbeklarning afsonaviy-marosim ramzlarida o'simliklar: hayot va o'limning mahalliy ko'rinishlari.....	101
18. M.M.ХАТАМОВА	Ўрта Осиё деҳқончилиги ўтмишини тиклашда археоботаник изланишлар.....	107
19. Д.Ҳ.МУРОДОВА	Жанубий Фарғона шаҳарсозлигида археоландшафтлар.	111
ADABIYOTSHUNOSLIK		
20. Sh.I.NAZAROVA	Fitratning "Yurt qayg'usi" she'rlar turkumi: tahlil va talqin.....	116
21. D.M.JAMOLIDLINOVA, D.M.MAXMUDOVA	Badiiy matnda qishloq xo'jaligiga oid terminlarning uslubiy xoslanish imkoniyatlari	121
22. O.J.ЛАТИПОВ	Концепт «лошадь/конь» в русской лингвокультуре.	127
23. E.I.ПОПОВА	Роль лингвистического анализа в раскрытии смысла художественного текста.....	131
24. P.ҲАКИМЖОНОВА	Поэтик мотив тушунчасининг назарий талқинлари...	136
TILSHUNOSLIK		
25. H.A.КАДЫРОВА, Д.С.УРАЕВА	Мотив переодевания в английской литературе.....	139
26. S. M. KARIMOVA	Kompozitsion mukammallik yo'lida	145
27. M.ШАРИПОВА	Инглиз ва ўзбек тилларида тақлидий сўзларнинг ифодаланиши.	149
28. M.ХИРОЖИДДИНОВА	Ранг-тус билдирувчи сифатларни ўрганиш.	153
29. Б.Б.ФАРМОНОВ	Семантическая структура рельефонимов в узбекском языке.....	157
30. M.МУМИНОВА		161

XVIII-XIX ASRLARDA BUXORODA MADANIY VA ILMIY MUHIT
CULTURAL AND SCIENTIFIC ENVIRONMENT IN BUKHARA IN XVIII-XIX
CENTURIES

КУЛЬТУРНАЯ И НАУЧНАЯ СРЕДА В БУХАРЕ В XVIII-XIX ВЕКАХ

R.Z.Rajabova- tayanch doktorant, Buxoro DU

Annotatsiya: Xalqimiz bosib o'tgan har bir davr bevosita boy tarixiy o'zgarish, taraqqiyot xususiyatlari va o'zaro madaniy ta'sirlar bilan sodir bo'lgan. Bugungi kunga kelib millatimiz tarixining jabhalari va bosqichlarini manbalar asosida o'rganish muhimdir.

Kalit so'zlar: XVIII-XIX asr, Buxoro, meros, tarix, manba, qo'lyozma asarlar, madaniyat.

Аннотация: Каждый период, проведенный нашим народом, непосредственно связан с богатыми историческими изменениями, особенностями развития и взаимными культурными влияниями. На сегодняшний день важно изучать на основе источников фронты и этапы истории нашей нации.

Ключевые слова: XVIII-XIX века, Бухара, наследие, история, источник, рукописные произведения, культура.

Annotation: Each period of our people's occupation occurred directly with rich historical changes, features of development and cultural interaction. To date, it is important to study the fronts and stages of the history of our nation on the basis of sources.

Key words: XVIII-XIX century, Bukhara, heritage, history, source, manuscripts, culture.

Darhaqiqat, o'zbek xalqining tarixi va madaniyati bir necha ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ajdodlar qoldirgan, asrlar davomida yaratilgan moddiy va ma'naviy meros esa insoniyat tarixining boy takrorlanmas qismini tashkil etadi. Ularning katta qismi esa madaniyat sohasida to'plangan boyliklardir. Mustaqillik tariximiz uchun qorong'u sahifalarni yana-da oydinroq yoritish imkoniyatini yaratib berdi. O'tgan yillar mobaynida ajdodlarimizning yuzlab qo'lyozma asarlari dunyo yuzini ko'rdi, respublikamizda va xorijda minglab nusxalarda nashr etildi. Bu ham tariximizning boy o'tmishiga va merosiga ko'rsatilgan ehtirom va e'tirofdir. Ayniqsa, o'zbek xonliklari davrida yaratilgan yuzlab noyob qo'lyozma asarlar bugungi kunda xalqimizning bebaho ma'naviy merosi sifatida o'z tarkibida madaniy hayotning turli sohalariga ko'plab ma'lumotlarni yetkazib kelayotganligi bilan bir qatorda davlatchilik jarayonlari, iqtisodiy va siyosiy hayot tafsilotlari, diplomatik aloqalarga oid qimmatli ma'lumotlarni jamlagan, ayni vaqtda ularning barchasi bu davrlardagi

madaniy hayotning eng asosiy jihatlarini aks ettiradi.

Bugungi kunda tarix faniga qo'yilayotgan talablar o'tmishni sinchiklab o'rganish, ularni hal etishga bo'lgan yondashuvlar va nuqtai-nazarlarni tahlil etib, ulardan bugungi kun uchun zarur xulosalarni chiqarishni talab etadi. Tarixni o'rganishga bo'lgan munosabatning turli siyosiy tuzumlar ta'sirida o'zgarib turishi bugungi kun tadqiqotchilari oldiga uni xolisona tahlil qilish va obyektiv ilmiy xulosalar chiqarish kabi katta va mas'uliyatli vazifa qo'yadi. Bunda eng avvalo ilmiy bilishning asosiy tamoyillari, umumjahon tarix fanining nazariy – kontseptual asoslari, milliy istiqloq mafkurasi falsafasiga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikka erishgan respublikamiz milliy madaniyatining tezkorlik bilan rivojlanishi tabiiy ravishda uning asosiy manbai bo'lmish madaniy merosimizni keng va chuqur hamda ilmiy asosda izchil o'rganishimizni taqozo etadi. Ma'lumki, o'zbek xalqi davlatchiligi va sivilizatsiyasi tarixida o'zbek xonliklari davri muhim

bosqich hisoblanadi. Shu jumladan oʻzbek xalqi madaniyati tarixida Buxoro amirligida madaniy hayot jarayonlari ham alohida ahamiyat kasb etadi, oʻzbek xalqining madaniy va maʼnaviy merosini oʻrganish nuqtai nazaridan Buxoro amirligidagi madaniy hayot va madaniy hayotning sohalarining alohida xususiyatlarini oʻrganish dolzarb tadqiqot mavzularidan biri sanaladi.

Buxoro shahri oʻz olimlari, adiblari, butun moddiy va maʼnaviy madaniyati bilan dunyoning mashhur shaharlari qatoridan oʻrin egallab kelgan. Buxoro shahrida tugʻilib, shuhrat qozongan buyuk muhaddis Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, yirik tabib va faylasuf Abu Ali ibn Sino, ulugʻ soʻfiy va katta tariqat peshvosi Bahouddin Naqshband va boshqa oʻnlab ilmu sanʼat arboblari butun jahonga tanildilar.

Har bir tarixiy davrda ilm ahli ilm-fan, maʼrifat va maʼnaviyatga intilib kelgan va oʻsha davr tarixini, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotini yoritishga harakat qilgan. Tarixda ajdodlarimiz ilm-zakovati bilan dunyoga tanilganlar va ular ilmning barcha sohalarida peshqadam boʻlganlarining guvohimiz. XVIII-XIX asrlarda Buxoroda ham juda koʻplab olimu fozillar yashab oʻtgan. Ular yozib qoldirgan boy maʼnaviy meros haligacha tadqiqotchilar tomonidan oʻrganilib kelinmoqda. XVIII-XIX asrlarda Buxoroda Muhammad Vafoyi Karminagiy, Mirzo Muhammad Sharif, Mir Olim Buxoriy, Ahmad Donish, Mirza Abduazim Somiy Boʻstoniy, Mirza Salimbek, Abulfath Buxoriy, Abu Marvon Dabusiy, Ibn Mansur Buxoriy, Nasriddin Husayniy, Mirzo Sodiq Munshiy Jandariy, Amir Shayx Murod ibn amir Doniyol, Amir Haydar ibn Amir Shayx Murod, Ahmad ibn Mirnosir bin Yusuf al-Hanafiy as-Siddiqiy al-Buxoriy, Abdurahmon Kulabi, Shayx Xudoydod, Muhammad Tohir ibn Muhammad Toyib kabi olimlar yashab oʻtganlar.

XVIII asrning oxirlariga kelib amirlikda iqtisodiy hayotning birmuncha yuksalishi madaniy hayotga ham taʼsir etmasdan qolmaydi. Ayniqsa, ilgarigi davrlarda shakllangan maktab va oliy taʼlim beruvchi madrasalar faoliyati bu davrda ancha yuksaladi. Boshlangʻich taʼlim beruvchi

maktablar amirlikning barcha yirik qishloqlarida, shaharlarining barcha mahallalarida mavjud boʻlib, bu maktablarda bolalarning dastlabki savodi chiqarilgan. Maktablarda arab alifbosida savod chiqarilib, qurʼonning dastlabki oyatlari yodlatilgan. Shariatga oid dastlabki saboqlar berilgan.

Madrasalar amirlikning barcha shaharlarida mavjud boʻlgan. Madrasalarda oʻqitish ilgarigi davrlarda boʻlganidek uch bosqichda, 1) past qadam; 2) miyona (oʻrta) qadam va 3) peshqadamda amalga oshirilib, yetti yil davom etgan. Madrasa oʻqituvchilari-mudarrislar va boshqa xizmatchilar maoshlari talabalar nafaqalari, kutubxona xarajatlari, taʼmirlash ishlari va boshqalarga ketadigan mablagʻlar vaqf yerlaridan keladigan foyda hisobidan qoplangan. Madrasalar odatda hukmdorlar, amaldorlar, nufuzli shaxslar, yirik din peshvolari va savdogarlar tomonidan qurilgan.

Madrasa talabalari diniy bilim boʻlgan Qurʼoni karim, fiqh, shariat asoslari, diniy-axloqiy adabiyotlar bilan birga til, adabiyot, tarix, falakiyot, mantiq, falsafa, handasa kabi dunyoviy va aniq fanlardan ham taʼlim olganlar.

Buxoroda amir Shohmurod (1785-1800)ning hukmronligi davrida adabiyotning barcha turlari gullab yashnagan. Buxoroning mangʻitlar zamonidagi tarixiga oid koʻplab asarlar yaratilgan. Biroq Buxoro va Samarqand olimlarining faoliyati feodal ilm-fani doirasidan chiqib keta olmagan. Tabiiy ilmlar, jugʻrofiya, kosmografiya va boshqalar oʻrta asrlar mualliflarining asarlaridagi maʼlumotlarni takrorlagan [4].

Buxoroda amir Shohmurodning oʻgʻli amir Haydar (1800-1826) hukmronlik qilgan davrda ilm-fan umuman inqirozga uchraydi. Shu jumladan tarix fani ham. Bu davrda "Tarixi amir Haydar" va "Gulshan al-muluk" asarlari yozilgan, ammo ular XVIII asr oxiri va XIX asr boshlaridagi muarrixlarning mufassal tafsilotlari bilan raqobatlasha olmagan. Matematika faqat amaliy maqsadlar, merosni taqsimlash va boshqa ishlar uchun

o'qitilgan. Diniy bilimlarni, ayniqsa fiqh ilmini o'rganish juda keng tus olgan. Yangi asarlar esa avvalgi zamonlardagi mualliflarning asarlariga yozilgan arabcha va forscha sharhlardan nariga o'tmagan. Ilmiy tafakkurning bu xil cheklanishi esa o'zbek xonliklarida feodal munosabatlar ustunlik qilgan va qotib qolgani bilan izohlanadi.

Xalq orasidagi urf-odatlar bilan shar'iy me'yorlarning mos kelmasligi ayrim xukmdorlarni jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida "qat'iy shar'iy xukmlar" o'rnatish yo'lini izlashga undaydi. Bu o'rinda Buxoro amiri Shoxmurod (1785-1800) shar'iy hukmlarni qo'llashni tatbiq qilib, uning o'g'li amir Haydar(1800-1825) tomonidan davom ettirilgan diniy islohotlar e'tiborga loyiq. Shohmurod shariat ko'rsatmalarini amalda qo'llash yuzasidan o'ziga xos "taftish" o'tkazgan. Uning bevosita ishtirokida Buxoro faqihlari tomonidan chiqarilgan qator fatvolar saralanib, kodifikatsiya qilingan. Bu Fatvolar to'plami (*Fatavoyi ahli Buxoro*) tugallanmay qolib ketgan, shuning barobarida boshlangan diniy islohotlar ham, o'z navbatida, ba'zi tariqat (Yassaviyya, Ishqiyya, Qalandariya) vakillarining, hamda islomning mahalliy formalarini xalqqa singib borishida katta rol o'ynagan diniy ulamolarning qarshiligiga uchraydi. Ayni paytda ushbu hukmdorlar davrida vaqfga berilgan qator o'quv muassasalari (eng avvalo madrasalar) qayta tiklanadi.

XIX asrdagi Qo'qon muarrixlari orasida xon o'rdasida boshlang'ich ta'lim olib, keyin Buxoro madrasalaridan birida o'qigan Muhamad Hakimxonni ajratib ko'rsatish mumkin. Uning "Muntaxib ut-tavorix" asari mashhur bo'lib, O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi. Zotan, unda muallif tarixni mahalliy va sulola nuqtai nazaridan o'rganishning tor doirasidan chiqib, keng ko'lamda tadqiqod olib bora olgan.

Muhammad Raximxon (1806-1825) davrida tarixiy asarlarni xon amriga binoan yozish xuddi Shayboniyxon va Abdullaxon zamonlarida bo'lgani kabi mustaqil hokimiyat ramziga aylangan.

Boshqa yirik muarrix Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoniy (1859-1923)dir. Keng ma'lumotli, O'rta Osiyo tillarining bilimdoni bo'lgan Bayoniy kamida to'rtta yirik tarixiy asarni, shu jumladan Kamoliddin Binoiyning "Shayboniyнома", Abu Ja'far Muhammad bin Jarir at-Tabariyning "Tarix ar-rusul val-muluk" asarlarini chig'atoy turkiysiga tarjima qilgan.

Bu davrda yaratilgan tarixiy asrlarning ko'pchiligi hukmron mang'itlar sulolasi tarixiga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'rta asrlar tarixnavisligidagi an'analarni davom ettirilgani kuzatiladi. Amirlikda yashab o'tgan ilm-fan namoyondalarining faoliyati ko'p qirrali bo'lib, ularning aksariyati tarixiy asarlar ham yaratganlar. Xususan, Mullo Ibodullaning "Tarixi amir Haydar", Muhammad Sharifning "Dostoni amironi mang'it", Mir Olim Buxoriyning "Fathnomai sultoniy", Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi salotini mang'itiya", "Dahmai shohon", Muhammad Sharif ibn Muhammad Naqining "Toju tavorih", Ahmad Donishning "Mang'itlar xonadoni hukmdorlari tarixidan qisqacha risola", Mirzo Sodiq Munshiyning "Mang'it hukmdorlari tarixi" kabilar shular jumlasidandir.

O'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixga ega bo'lgan madaniy merosida xattotlik va kitobat san'ati alohida o'rin egallaydi. Arablar istilosidan so'ng O'rta Osiyoga islom dini bilan bir vaqtda kirib kelgan arab yozuvi qisqa fursatda rasmiy yozuvga aylantirilishi natijasida arab alifbosi estetik zavq beruvchi san'at asari darajasiga ko'tarildi. Bu yozuv namunalari yozish xattotlik (kalligrafiya) nomi bilan keng shuhrat qozongan.

Amirlikning madaniy hayotida hattotlik ham muhim o'rin egallagan. Bu davrda Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlarda hattotlik maktablari mavjud bo'lgan. O'z kasbining ustasi bo'lgan mohir hattotlar davlat va xo'jalik hujjatlari tayyorlashda, ilmiy-badiiy asarlar yozish va ko'chirishda memoriy inshootlarga turli yozuvlar(Qur'oni karim oyatlari, hadislar va hikmatlar)ni chiroyli naqshlar tarzida bitishda mashhur bo'lganlar. Amirlikda

xattotlikni o'ziga kasb qilgan tajribali xattotlar etishib chiqqan bo'lib, ular bu soxada o'zlarining ilmiy maktablariga asos solganlar. XVIII-XIX asrlarda Buxoro xattotlik maktabining namoyandalari haqida gap borganda, albatta ularning usullariga qarab turkumlash muhimdir. Buxoro xattotlari o'z ijodlarida turli xat usullaridan foydalanishgan. Ayniqsa, Buxoro xattotlik maktabi vakillarida nastaliq xatini qo'llash keng o'rin tutgan. Shu bilan birga, nash usuli va har ikki usulda kitob ko'chiruvchi xattotlar bo'lgan. Buxoro tarixiga aloqador manbalarda XVIII-XIX asr boshlarida Buxoroda yashab ijod qilgan 104 nafar xattotlarning nomlari keltirib o'tilgan. Xattotlar kitob ko'chirish bilan birga ustozlik qilishgan, madrasalarda ta'lim berishgan. Hattoki ular orasida kitobat san'ati bilan shug'ullanuvchilari ham bo'lgan. Shulardan nastaliq va nasx xatlarida kitob ko'chiruvchilardan: Muhammad Yusuf Maxdum, Shahobiddin Maxdum Foziljon o'g'li, Nazrulloh Lutfiy, Hoji Nematulloh, Qori Ahmad Kotib Buxoriy, Maqsud Xo'ja, Mirzo Abdulkarim, Mirzo Qamarjon, Hoji Abdusattor, Mirzo Abdulloh Kotib, Mirzo Rahmatulloh, Mirzo Sa'dullohiy Buxoriy, Mir Fayzulloh va Mir Rahmatulloh, Abdullohbek Kotib va boshqalardir.

Olib borgan izlanishlar jarayonida yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, XVIII-XIX asrda olimlar ko'proq tarixiy asarlar bilan bir qatorda tasavvufiy asarlar yozishga e'tibor qaratganlar. Tarixiy asarlar ko'p yozilishiga sabab, hammaga ma'lumki katta-katta olimlar, bilimli va dono shaxslar amirlar va hukmdorlarga xizmat qilganlar va saroylarda faoliyat olib borganlar. Buxoro amirlariga xizmat qilayotgan olimlar va din peshvolari albatta ularga bag'ishlab asarlar yaratganlar va ularning olib borayotgan hukmronlik ishlari va o'sha davr voqealarini qog'ozga tushirganlar. Tarixiy asarlarning ko'p yozilganligiga yana bir sabab, o'sha davrda yozilayotgan asarlarga asosan amirlar va boy amaldorlar homiylik qilganlar va ular o'zlariga atab asarlar yozishni buyurganlar.

XVIII-XIX asrlarda Buxoroda yozilgan asarlarning bir qismini tasavvufiy asarlar

ham tashkil qiladi. Bu davrda tasavvuf juda rivojlangan bo'lib, olimlar shu borada o'z faoliyatlarini olib borganlar. Buxoro yaqinidagi G'ijduvon tumanidan juda ko'p olimlar va fozillar yetishib chiqqani hammamizga ma'lum. XVIII-XIX asrlarda G'ijduvonda tasavvuf ilmi rivojlangan bo'lib, u yerda asosan Naqshbandiya va Qodiriya tariqatlari rivojlangan. Bu davrda yozilgan tasavvufiy manbalarni tahlil qilish jarayonida G'ijduvonda yozilgan tasavvufiy asarlar asosan Naqshbandiya va Qodiriya tariqatiga bag'ishlanganligi aniqlandi [10].

XVIII-XIX asrlarda Buxoroda yozilgan manbalarning bir qismini fiqxiy asarlar tashkil qilib, ular asosan shariat qonun-qoidalariga, qozilik ishlariga, savdo-sotiq va urf-odatlariga bag'ishlangan. Fiqxiy asarlarning aksariyati amirlar chiqargan farmon va farmoyishlarga bag'ishlangan.

XVIII-XIX asrlarda Buxoroda yozilgan fiqhiy asarlar asosan qozilar tomonidan yozilgan bo'lib, ular asosan madrasa talabalari uchun darslik vazifasini o'tagan. Buxoroning mashhur qozilaridan biri Sadri Ziyo (1867-1932 y.) bo'lib, u Sharifjon, qozining farzandi, dindor bo'lgani uchun – mahdum, sadr unvonlarini olgan, Ziyo esa uning taxallusidir. Asarlarda uning Sadri Ziyo, Mirzo Muhammad Sharif mahdum, qozi Sharifjon kabi nomlari keltirib o'tilgan.

Sharifjon maxdum Sadri Ziyo tomonidan tuzilgan arab-tojik tilida "Majmuai tazkor" (Tazkiralari majmuasi) asarida Markaziy Osiyo va qo'shni davlatlarning tarixi, adabiyoti va boshqa fan sohalariga oid muhim ma'lumotlarni jamlagan.

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Buxoroda yozilgan asarlar xonlar va yirik feodallarning hayoti, silsilasi va hukmronlik faoliyatini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, ular saroylarda yaratilgan [1].

Saroy adabiyoti xilma-xil bayoz va she'riy yilnomalar tuzish bilan band bo'ldi. Bu esa shoirlarda mustaqil ijod tuyg'usi sustlashganidan darak beradi. Buxoroda amir Haydar davrida uning shaxsiy kotibi bo'lgan Mirza Sodiq Munshiy ajoyib shoir sifatida 15 ming g'azal va ko'plab masnaviyatlardan iborat "Devon" yaratgan. "Mang'it hukmdorlari tarixi"ni she'riy usulda

bitgan. Sharqda mashhur bo‘lgan Yusuf qissasini she‘rga solgan.

Umuman olganda ikki tillik XIX asr she‘riyatining o‘ziga xos hususiyatidir. G‘azallar ba‘zida shiru shakar usulida – bir misrasi tojik, ikkinchi misrasi o‘zbek tilida yozilgan. Ikki tillik adabiyot nafaqat saroyda, balki oddiy xalq orasida ham keng tarqalgan edi. O‘zbek va tojik fol‘klori ham chambarchas birlashib ketgan edi.

Umuman olganda XVIII-XIX asr Buxorodagi siyosiy-ijtimoiy, madaniy muhit o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Bu davrga oid nodir tarixiy manbalarni keng tadqiqod doirasiga olib kirish orqali biz tarixni ochilmagan qirralarini ochishimiz mumkin. Markaziy Osiyoda kechgan ijtimoiy-siyosiy voqealar o‘z davrida va keyingi asrlarda yaratilgan qator tarixiy manbalarda aks etgan. Bunday asarlar sirasiga XVIII asrda fors tarixshunosligining yirik vakili Muhammad Kozimning (1720-21/1754-55) “Nomayi Olamaroyi Nodiriy”, Markaziy Osiyo tarixnavisligida “Tarixi Rahimxoniy” nomi bilan mashhur “Tuhfat al-Xoniy”, Xoja Muhammad Hakimxon to‘ra Xo‘qandiy (tug‘.y. 1806/07)ning “Muntaxab at-tavorix” kabi asarlarini kiritish mumkin.

XVIII-XIX asrlarda yozilgan asarlarning ayrimlarini Rossiyadan kelgan olimlar va elchilar o‘zlari bilan olib ketganlar. Istilo va undan keyingi mustamlakachilik yillarida

Freytag, Akimushkin, Ivanov, Smirnov, Gluxovskiy, Stroganov, Kostigov, erdman, Dorn, Folkman, Simonich, Dolgorukiy, Tamayev, Uillin, Kartovov, Geyns, Pozalyan, Dyakonov, Trigorov, Golik, Revel, Kas, Danzas singari olimlar Turkistondan o‘margan qoiyozmalarni Sankt-Peterburg kutubxonalariga topshirganlar. Birgina Volochinskiy yurtimizdan olib ketgan 24 asami imperator kutubxonasiga katta mukofot evaziga taqdim etadi. Achinarli joyi shundaki, Buxoro amirlarining boy va ko‘p qamrovli kutubxonalarini butkul talon-toroj etilgan. Amir Nasrullo davridan boshlangan g‘orat amirlikning vassallik yillarida avj nuqtaga ko‘tariladi. Turkistonda uzoq muddat yashagan V.L.Vyatkin, I.A.Kastane, P.Nalivkinlar ham butun imkoniyatni ishga solib, qo‘lyozma asarlarni jamg‘arish payida bo‘lganlar. V.L.Vyatkin yiqqan asarlar 190 jildni tashkil etgan. Ular orasida “Fathnoma”, “Zubdat ul-osor”, “Miftoh al-tolibin”, “Kitob tuhfat al-nasab”, “Nizom ut-tavorix”, “Tuhfat al-Xoniy”, “Tarixi Muqimxoniy”, “Temumoma”, “Tarixi muluki Ajam”, “Tarixi Roqim”, “Akhamoma”, “Murod ul-orifin”, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa”, “Tazkirat ush-shuaro” kabi ilmiy-tarixiy qimmatli beqiyos kitoblar asosini tashkil etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-qavlul-jamil fi bayon sivai assabil. Valiyulloh bin Shayx Abdurrahim, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti 500/XXIII-raqami ostidagi qo‘lyozma.
2. Анге Фон Кюгельген. Легитимация Среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. (XVIII-XIX вв.) Алматы. 2004.-С. 110
3. Арабские рукописи. Института востоковедения Академии наук СССР. Краткий каталог. М.: издательство «Наука» главная редакция восточной литературы, 1986.-526с.
4. Аҳмад Дониш. История мангитской династии. Душанбе.: Дониш 1967.- 125.6
5. Ahmad Donish. Risola yo muxtasare az ta‘rixii saltanati xonadoni mangitiya. Dushanbe, 1992. - 98 b.
6. Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al-Hanafiy al-Buxoriy. Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az-amir Doniyol to asri amir Abdulahad. XIX asr. O‘zR FA SHI qo‘lyozmasi, №18.
7. Ahmedov B. O‘zbekiston tarixining manbalari. – T.: Fan, 1991.
8. Vamberi X. Buxoro yohud Movarounnahr tarixi. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990.
9. Tuhfat al-Xoniy. Muhammad Vafoyi Karminagiyy. FA SHI Qo‘lyozmalar fondi № 4263.
10. Shajaratul – Qodiriya an – Nizomiya. Abdurrahmon G‘ijduvoniyy al-Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 4371-raqami ostidagi qo‘lyozma.